



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI
O‘ZBEKISTON “AGRAR SOHA AYOLLARI” UYUSHMASINING
QO‘SHMA QARORI**

**O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi
oliy ta‘lim muassasalarining talaba yoshlari o‘rtasida
“Yoshlar va innovatsion qishloq xo‘jaligi” ko‘rik-tanlovini tashkil
etish va o‘tkazish to‘g‘risida**

Mamlakatimizda “Yangi O‘zbekiston - yangicha dunyoqarash” g‘oyasi asosida ta‘lim va qishloq xo‘jaligida bilim hamda ilm-fan yutuqlari, innovatsion va ilg‘or texnologiyalarni amaliyotga samarali joriy etish salohiyatiga ega yangi avlod kadrlarini shakllantirishga qaratilgan kadrlar siyosatini izchil amalga oshirish hamda ularning sohaviy, siyosiy-huquqiy, ma‘naviy bilimlari va savodxonlik darajasini aniqlash, sohada xalqaro talablar asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash, shuningdek, bu borada o‘z tengdoshlariga ibrat namunalarini ko‘rsatayotgan iqtidorli talabalarni munosib rag‘batlantirish maqsadida,

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hamda O‘zbekiston “Agrar soha ayollari” uyushmasi **qaror qiladi:**

1. Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi oliy ta‘lim muassasalarining talaba yoshlari o‘rtasida “Yoshlar va innovatsion qishloq xo‘jaligi” ko‘rik-tanlovi (keyingi o‘rinlarda—“Tanlov” deb yuritiladi)ning Nizomi asosida o‘tkazilsin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi oliy ta‘lim muassasalarining talaba yoshlari o‘rtasida “Yoshlar va innovatsion qishloq xo‘jaligi” ko‘rik-tanlovini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risidagi Nizomi 1-ilovaga;

tanlovni tashkil etish va o‘tkazish yuzasidan Tashkiliy qo‘mita tarkibi 2-ilovaga;

tanlovning yakuniy respublika bosqichi Hakamlar hay‘ati tarkibi 3-ilovaga;

tanlovda ishtirok etuvchi oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilab qo‘yilsinki:

tanlov vazirlik tizimidagi oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida Nizomda belgilangan tartib asosida o‘tkaziladi;

tanlovga Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlarini yo'l(kelib-ketish) chiptasi bilan bog'liq xarajatlar oliy ta'lim muassasasining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi;

Tanlov g'oliblari tadbir yakunida Nizom talablariga asosan diplom va O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hamda O'zbekiston "Agrar soha ayollari" uyushmasining esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

4. Tanlovni o'tkazish bo'yicha Tashkiliy qo'mitaga:

tanlovning mazmun-mohiyati va asosiy maqsadlarini talaba-yoshlar o'rtasida keng tushuntirish ishlarini olib borish hamda ommaviy-axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish;

Tashkiliy qo'mita va hay'atlarning tanlovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha tizimdagi oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro uzviy va muvofiqlashgan faoliyatini ta'minlash;

tanlovni hakamlar hay'ati tomonidan ochiqlik, xolislik va adolat tamoyillariga asoslangan holda o'tkazilishini nazorat qilish;

tanlovga puxta tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish maqsadida zarur hollarda Ishchi guruhlar va hakamlar hay'ati tarkibiga malakali ekspertlarni jalb qilish vazifalari yuklatilsin.

5. Toshkent davlat agrar universiteti (Islamov) tanlovga Qoraqolpog'iston Respublikasi va viloyatlardan kelgan vazirlik tizimidagi oliy ta'lim muassasalarining jamoalarini kutib olish va kuzatish, talabalar turar joyiga joylashtirilish hamda ovqatlantirish bilan bog'liq xarajatlarni universitetining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshirilsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamizda qoldiramiz.

Qishloq xo'jaligi vaziri

Toshkent v.,

2023-yil "15" 05

01/09-3 Q/R -son

Yoshlar ishlari agentligi direktori

o'ribosari

Toshkent sh.,

2023-yil "15" 05

01-07/07 -son

O'zbekiston "Agrar soha ayollari"

uyushmasi raisi

Toshkent v.,

2023-yil "15" 05

2 -son

A.Voitov

D.Kattaxanova

A.Axmedjanova



**“Yoshlar va innovatsion qishloq
xo‘jaligi” tanlovini tashkil etish va
o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi
Qo‘shma qarorga
1-ilova**

**Vazirlik tizimidagi oliy ta‘lim muassasalari talaba yoshlari
o‘rtasida “Yoshlar va innovatsion qishloq xo‘jaligi” tanlovini tashkil
etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOMI**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi oliy ta‘lim muassasalari talaba-yoshlari o‘rtasida “Yoshlar va innovatsion qishloq xo‘jaligi” tanlovini (bundan keyingi o‘rinlarda “Tanlov” deb yuritiladi) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

Ushbu tanlov O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan Strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son, 2021-yil 3-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi PF-6159-son, hamda 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlarida belgilab berilgan ustuvor vazifalar hamda ularni amalga oshirish borasida talabalarning ilmga asoslangan noan‘anaviy innovatsion g‘oya va takliflarini o‘rganish va baholash uchun muhokama hamda munozara maydoni ham hisoblanadi.

II. Tanlovning maqsad va vazifalari

2. Tanlov mamlakatimizda “Yangi O‘zbekiston - yangicha dunyoqarash” g‘oyasi asosida ta‘lim va qishloq xo‘jaligida bilim hamda ilm-fan yutuqlari, innovatsion va ilg‘or texnologiyalarni amaliyotga samarali joriy etish salohiyatiga ega yangi avlod kadrlarini shakllantirishga qaratilgan kadrlar siyosatini izchil amalga oshirish hamda ularning sohaviy, siyosiy-huquqiy, ma‘naviy bilimlari va savodxonlik darajasini aniqlash, sohada xalqaro talablar asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash, shuningdek, bu borada o‘z tengdoshlariga ibrat namunalari ko‘rsatayotgan iqtidorli talabalarni munosib rag‘batlantirish maqsadida tashkil etiladi.

III. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish

3. Tanlovda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba-yoshlardan tashkil topgan jamoalar ishtirok etishlari mumkin.

4. Tanlovni mazkur Nizom asosida tashkil etish va uni o‘tkazish Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati, Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston

“Agrar soha ayollari” Uyushmasi hamda Vazirlik tizimidagi oliy ta’lim muassasalarining vakillaridan o‘zaro kelishuv asosida shakllantirilgan Tashkiliy qo‘mita (2-ilova) tomonidan amalga oshiriladi.

5. Tanlovda ishtirok etuvchi jamoalar 6 (olti) nafar, shu jumladan, 3 nafar yigit va 3 nafar qizlardan iborat tarkibda shakllantiriladi.

6. Tanlov ikki bosqichda o‘tkaziladi:

6.1. Tanlovning **birinchi** (saralash) **bosqichi** 2023-yil may oyi uchinchi o‘n kunligida oliy ta’lim muassasalarining o‘zida o‘tkaziladi, muassasada birinchi o‘rinni egallagan jamoa yakuniy respublika bosqichida ishtirok etadi.

6.2. Tanlovning **ikkinchi** yakuniy (respublika) **bosqichi** oliy ta’lim muassasalari bosqichlarida g‘olib deb topilgan jamoalar o‘rtasida 2023-yil iyul oyining uchinchi o‘n kunligida o‘tkaziladi.

7. Oliy ta’lim muassasalarida tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha Tashkiliy qo‘mitaning ishchi guruhlar (sho‘balar) tarkibiga Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi, Toshkent viloyati turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi vakillaridan iborat mas‘ul xodimlar kiritiladi.

8. Tanlovning yakuniy respublika bosqichi bo‘lib o‘tadigan joyi va sanasi Tashkiliy qo‘mita tomonidan belgilanadi va 10 kun oldin oliy ta’lim muassasalarining o‘zida g‘olib bo‘lgan jamoalarga ma‘lum qilinadi.

IV. Tanlov shartlari va baholash mezonlari

9. Tanlov quyidagi **4 ta shart** asosida o‘tkaziladi:

1-shart. Tanishtiruv sharti. Bunda, tanlovda ishtirok etayotgan har bir jamoalar oliy ta’lim muassasasida o‘zlari tahsil olayotgan mutaxassislik bo‘yicha so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar, erishilgan natijalar va kelgusidagi vazifalar to‘g‘risida ma‘lumot beradi.

Ushbu shartga 5 daqiqa vaqt beriladi va 5 ballik tizimda baholanadi.

Hakamlar tomonidan jamoalardagi ishtirokchilarning nutqi, sohada amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorligi, nutq madaniyati hamda vaqt menejmentini hisobga olgan holda baholanadi.

2-shart. Jamoa sardorlarining bellashuvi. Bu shartda jamoa sardorlari 3 (uch) ta savoldan tuzilgan biletga og‘zaki javob beradi (*ma‘naviyat-ma‘rifiy sohada, qishloq xo‘jaligi tarmoq va sohalari, global iqlim o‘zgarishi, “yashil iqtisodiyot” va iqtisodiy islohatlar bo‘yicha savollar beriladi*);

Har bir jamoa sardoriga o‘ylash uchun 0,5 daqiqa, javob berish uchun 1 (bir) daqiqa vaqt beriladi va **5 ballik** tizimda baholanadi.

3-shart. Qishloq xo‘jali sohasidagi innovatsion rivojlantirishga oid loyihalar (taqdimot va videorolik ko‘rinishida) haqida ma‘lumot beradi.

Bunda jamoa birgalikda qishloq xo‘jaligini ma‘lum bir sohasini, innovatsion rivojlantirish, resurs tejankor texnologiyalardan “nou-xau” usulida foydalanish, “yashil iqtisodiyotga o‘tish”, qishloq xo‘jaligini keskin iqlim sharoitiga moslash va sohani rivojlantirishga oid takliflar, “biznes-reja”, “start up” loyihalarini bayon qiladi.

Shuningdek, ishtirokchi jamoalar o'z rejalarini og'zaki, ko'rgazmali, chizmalar, "videorolik", kichik biznes loyiha ko'rinishlarida taqdimot etishlari mumkin bo'ladi. Shartni bajarish uchun jami 5 daqiqa beriladi. Bu shartda jamoadagi ishtirokchilarning mustaqil fikrlashi, tadbirkorlik tashabbusi, liderlik qobiliyati va o'z rejalarini amalga oshirishdagi izchilligiga qat'iyatlik xislatlariga e'tibor beriladi hamda **5 ballik** tizimda baholanadi.

4-shart. Erkin mavzu, ijodiy erkin yo'nalish. Bu shartda ishtirokchi jamoalar davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus, sohadan tashqari qiziqishlari va bo'sh vaqtlarida nima bilan mashg'ul bo'lishlarini (raqs, she'riyat, rassomchilik, kichik sahna ko'rinishi, musiqiy yo'nalish va hokazo) namoyish etadilar. Shartni bajarish uchun ko'pi bilan 5 daqiqa beriladi. Bu shart ham **5 ballik** tizimda baholanadi.

10. Jamoalar o'z chiqishlari bilan o'ziga xoslik, milliylik, mazmundorlikka, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga, ular mohiyatini oddiy va xalqchil tarzda ochib berishga, belgilangan vaqtga qat'iy rioya qilishga, kiyinish madaniyati, jamoa nomi, ko'krak nishoni, shiori, targ'ibot usullaridan foydalanishga, ilmiy, ijodiy, badiiy hamda voqea hodisalarni milliy ma'naviy qadriyatlarimizdan chekinmagan holda mahorat bilan ijro etishga e'tibor qaratishlari talab etiladi hamda jamoalarni baholashda ushbu mezonlarga katta ahamiyat beriladi.

11. Tanlov jarayonida foydalaniladigan savollar Tashkiliy qo'mita tomonidan zarur hollarda hamkor tashkilotlar mutaxassisleri jalb qilingan holda tegishli ishchi guruh va sho'balardan tomonidan tuziladi va tanlovning saralash bosqichlari uchun ajratiladi, avvaldan alohida maxsus konvertlarga solinib, muhrlanadi hamda tanlovning tegishli bosqichi o'tkaziladigan kuni belgilangan tartibda ishchi guruhiga yetkaziladi.

12. Barcha shartlar bo'yicha umumiy ballar qo'shib hisoblanganda eng yuqori ko'rsatkichga erishgan jamoa tanlovning g'olibi deb topiladi. Hakamlar Hay'ati tomonidan jamoa ishtirokchilarining odob-axloqi, shartni bajarish uchun ajratilgan vaqtga rioya qilishi, boshqa jamoalarga bo'lgan munosabati va boshqa salbiy holatlarni inobatga olib jarima qo'llab umumiy to'plangan ballaridan ayirib tashlash huquqiga ega.

13. Jarima ballari – 1 (bir) balldan 3 (uch) ballgacha belgilanadi.

Shartlar uchun e'lon qilingan ballardan tanlovda ishtirok etgan jamoalar tomonidan norozilik mavjud bo'lsa, ushbu masala yuzasidan umumsohaviy tanlovni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha Tashkiliy qo'mitaga yozma ravishda murojaat qilishlari mumkin.

Hakamlar hay'ati tomonidan har bir shart yakunida sharh beriladi, qabul qilingan qarorni muhokama etishga yo'l qo'yilmaydi.

V. Tanlov tashkiliy qo'mitasining ishchi guruhi tarkibi va ularning vazifalari

14. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha Tashkiliy qo'mita tarkibiga Qishloq xo'jaligi vazirligi markaziy apparati, Yoshlar ishlari agentligi,

O'zbekiston "Agrar soha ayollari" Uyushmasi hamda Vazirlik tizimidagi oliy ta'lim muassasalarining vakillaridan shakllantirilgan xodimlaridan malakali vakillar kiritiladi:

tashkiliy qo'mita tanlovni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq barcha jarayonlarni boshqaradi va nazorat qiladi;

tanlovni o'tkazilish tartibi, joyi va vaqtini tanlov o'tkazilishidan **bir hafta** oldin e'lon qiladi;

tanlovni tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini OAV va oliy ta'lim muassasalarining ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida keng yoritib boradi.

VI. Tanlovda ishtirok etuvchi jamoalardan talab qilinadigan hujjatlar tarkibi

15. Tanlovni o'tkazilish tartibi va mazmun-mohiyati to'g'risida jamoalarni xabardor qilish maqsadida mazkur Nizom tasdiqlangandan so'ng Tashkiliy qo'mita tomonidan tanlov o'tkazilishidan kamida **bir hafta** oldin yuborilib ma'lum qilinadi;

16. Tanlovning yakuniy respublika bosqichida ishtirok etish uchun jamoalardan quyidagi hujjatlar talab etiladi:

oliy ta'lim muassasalari bosqichining yakuniy natijalari bo'yicha bayonnomadan ko'chirma;

tanlovning yakuniy respublika bosqichida ishtirok etish uchun OTM rektori tomonidan tasdiqlangan ishtirokchi jamoa a'zolari ro'yxati (mazkur Nizomning 1-ilova namunasi asosida);

tanlov yakuniy respublika bosqichida ishtirok etuvchilarning pasport yoki ID karta nusxalari.

VII. Ishtirokchilarni baholash tartibi

17. Tanlovning har bir sharti yakuni bo'yicha ishtirokchi jamoalarning olgan ballari bilan tanishtirib boriladi va barcha shartlar bo'yicha to'plagan umumiy ballar yig'indisi aniqlanadi hamda e'lon qilinadi.

18. Tanlovning barcha shartlari bo'yicha to'plagan ballari teng bo'lib qolgan ishtirokchi jamoalarga "Blits savollari" o'ynaladi. Bunda 3 (uch) ta blits savoli o'ynaladi va har bir savolga 1 (bir) minut vaqt beriladi. "Blits savollari" bellashuvi natijasiga ko'ra jamoalarning o'rinlar ketma-ketligi shakllantiriladi.

19. Tanlovni yuqori saviyada o'tkazish, g'oliblarni aniqlash yuqori hakamlar Hay'ati tomonidan baholash mezoniga muvofiq amalga oshiriladi.

VIII. Ko'rik tanlov g'oliblari va ishtirokchilarini taqdirlash

20. Tanlov g'olibi va ishtirokchilari Qishloq xo'jaligi vazirligi markaziy apparati, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi, Toshkent viloyati turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi va O'zbekiston "Agrar soha ayollari" Uyushmasi tomonidan yakuniy bosqichida 1, 2 va 3-o'rinlarni qo'lga kiritgan g'olib jamoalar quyidagi tartibda diplomlar va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanadilar:

Mutlaq g'olib: Diplom va estalik sovg'alar hamda Qishloq xo'jaligi vazirligining maxsus mukofoti.

1-o'rin - I-darajali diplom, qimmatbaho sovg'alar;

2-o'rin - II-darajali diplom, qimmatbaho sovg'alar;

3-o'rin - III-darajali diplom, qimmatbaho sovg'alar.

21. Tanlovda faol ishtirok etgan va yuqori ball to'plagan jamoalarga Hakamlar hay'ati tomonidan "Eng quvnoq jamoa"; "Eng ahil jamoa"; "Kreativ fikrlaydigan jamoa" va "Istiqbolli jamoa" va boshqa shu kabi nominatsiyalar bo'yicha tanlovning g'oliblari tanlab olinadi va Faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlanadi.

22. Tanlov g'olibi va ishtirokchilarini taqdirlashga Xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari hamda homiy tashkilotlar jalb qilinishi mumkin.

IV. Yakuniy qoidalar

23. Tanlovni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar mos ravishda vazirlik tizimidagi oliy ta'lim muassasalari budjetdan tashqari jamg'armasi hamda hamkor tashkilotlarning homiylik mablag'lari hisobidan belgilangan tartibda, o'zaro kelishilgan holda qoplanadi.

24. Davlat va nodavlat muassasalari hamda xalqaro hamkor tashkilotlar tanlovda homiylik qilishlari mumkin.

25. Tanlov ishtirokchilarining hujjatlari belgilangan muddatda va talab darajasida taqdim etilmasa hamda asoslanmagan hujjatlar taqdim etgan taqdirda bu jamoalar tanlovdan chetlashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi
vazirligi tizimidagi oliy ta'lim muassasalarining
talaba yoshlari o'rtasida "Yoshlar va innovatsion
qishloq xo'jaligi" ko'rik-tanlovini tashkil etish va
o'tkazish to'g'risida Nizomga 1-ilova

"TASDIQLAYMAN"
OTM rektori

“ ___ ” _____ 2023-yil

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi
oliy ta'lim muassasalarida "Yoshlar va innovatsion qishloq xo'jaligi"
ko'rik-tanlovini Respublika bosqichida ishtirok etadigan OTM ning
“ _____ ” jamoasi a'zolari
RO'YXATI

No	Jamoa a'zolarining F.I.Sh.	Tug'ilgan sanasi	Pasport ma'lumotlari	Ta'lim yo'nalishi, bosqichi va guruhi
1.	Olimov Olim Olimovich	15.10.2003	AA 1234567	Agro-iqtisodiyot, 3-bosqich
2.				
...				

Birinchi prorektor (*direktor o'rinbosari*)

F.I.Sh.

“Yoshlar va innovatsion qishloq
xo‘jaligi” tanlovini tashkil etish va
o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi
Qo‘shma qarorga
2-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi oliy
ta‘lim muassasalari talaba yoshlari o‘rtasida “Yoshlar va innovatsion
qishloq xo‘jaligi” ko‘rik-tanlovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha
Tashkiliy qo‘mita
TARKIBI**

1. Q.A.Yuldashev – Qishloq xo‘jaligi vazirining o‘rinbosari,
Tashkiliy qo‘mita raisi
2. E.U.Abdualimov – Qishloq xo‘jaligi vazirining maslahatchisi,
Tashkiliy qo‘mita raisining o‘rinbosari

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari

3. U.A.Saidova – Qishloq xo‘jaligi vazirligi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi boshlig‘i
4. A.M.Mirzayev – Qishloq xo‘jaligi vazirligi Kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi
5. D.B.Nazirov – Qishloq xo‘jaligi vazirining matbuot kotibi
6. I.Tillaboyev – Yoshlar ishlari agentligi xodimi
7. A.Axmadjonova – O‘zbekiston “Agrar soha ayollari” Uyushmasi rahbari
8. D.Imomova – Qishloq xo‘jaligi vazirligi Yoshlar yetakchisi
9. S.Islamov – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori
10. M.Aminova – Xalqaro qishloq xo‘jaligi universiteti rektori
11. X.Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori
12. K.Komilov – Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori

13. E.Toreniyazov – Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori
14. A.Jo‘rayev – Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti rektori
15. Sh.Hasanov – Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali direktori
16. A.Esimbetov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali direktori
17. G‘.Mingliyev – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari
18. D.Omonov – Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Yetakchi mutaxassisi, Tashkiliy qo‘mita kotibi

13. E.Toreniyazov – Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori
14. A.Jo‘rayev – Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti rektori
15. Sh.Hasanov – Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali direktori
16. A.Esimbetov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali direktori
17. G‘.Mingliyev – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari
18. D.Omonov – Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Yetakchi mutaxassisi, Tashkiliy qo‘mita kotibi

“Yoshlar va innovatsion qishloq
xo‘jaligi” tanlovini tashkil etish va
o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi
Qo‘shma qarorga
3-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi oliy
ta‘lim muassasalarining talaba yoshlari o‘rtasida “Yoshlar va
innovatsion qishloq xo‘jaligi” ko‘rik-tanlovining yakuniy respublika
bosqichi Hakamlar hay‘ati**

TARKIBI

- | | |
|------------------------|--|
| <i>A.S.Shamsiyev</i> | - <i>Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Texnik, moyli va dorivor o‘simliklarni rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i</i> |
| <i>L.Mingeshev</i> | - <i>Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari</i> |
| <i>I.Tillaboyev</i> | - <i>Yoshlar ishlari agentligi, Ta‘lim muassasalaridagi yoshlar bilan ishlash, volontyorlikni rivojlantirish va yoshlarga oid istiqbolli g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi mas‘ul xodimi</i> |
| <i>F.D.Kirgizboyev</i> | - <i>Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi direktori o‘rinbosari</i> |
| <i>R.E.Kamilov</i> | - <i>Qibray tumani hokimligi Madaniyat va turizm bo‘limi boshlig‘i</i> |

* *Hakamlar hay‘ati tarkibiga Tashkiliy qo‘mita tomonidan o‘zgartirishlar kiritish mumkin.*

“Yoshlar va innovatsion qishloq
xo‘jaligi” tanlovini tashkil etish va
o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi
Qo‘shma qarorga
4-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi
oliy ta‘lim muassasalarining talaba yoshlari o‘rtasida
“Yoshlar va innovatsion qishloq xo‘jaligi” ko‘rik-tanlovida ishtirok
etadigan oliy ta‘lim muassasalari
Ro‘yxati**

No	OTM nomi	Jamoalar nomi
1.	Xalqaro qishloq xo‘jaligi universiteti	Internatsionalle
2.	Toshkent davlat agrar universiteti	Yuksalish
3.	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti	Samarqand Kelajagi
4.	Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti	Nukus Kelajagi
5.	Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti	Agrodoctor
6.	Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti	Agrolife
7.	Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali	SamAgro
8.	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali	Agroinnovatsiya
9.	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali	Yosh innovatorlar

**Eslatma: Internatsionalle, Yuksalish, Samarqand kelajagi, Nukus kelajagi, Agrodoctor, Agrolife, SamAgro, Agroinnovatsiya, Yosh innovatorlar jamoa nomlari tegishli oliy ta‘lim muassasalari tomonidan belgilangan.*